



0009-0003-8557-1928

## BADIY MATNLAR ORQALI O'QISH KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

**X.B.Tursunov**

*Is'hoqxon lbrat nomidagi*

*Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
tel :+998937040874 e.mail: [tursunovhb@rambler.ru](mailto:tursunovhb@rambler.ru)*

**Annotasiya:** Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish juda muhim ahamiyatga ega. O'qish – bu faqatgina matnni tushunib o'qish emas, balki matn bilan muloqot qilish, uning ma'nolarini chuqur anglash va shaxsiy fikr-mulohazalarni shakllantirish jarayoni. O'qish – bu faqatgina matnni tushunib o'qish emas, balki matn bilan muloqot qilish, uning ma'nolarini chuqur anglash va shaxsiy fikr-mulohazalarni shakllantirish jarayoni. Badiiy matnlar esa o'qish malakalarini rivojlantirishda alohida o'rinn tutadi, chunki ular talabalarga yuksak adabiy til, ruhiy boylik va hayotiy tajribani o'rgatadi. Ushbu ilmiy maqolada badiiy matnlar asosida o'qish kompetensiyalarini takomillashtirishning samarali metodikalariga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** badiiy matnlar, o'qish kompetensiyasi, fransuz adabiyot, interaktiv metodlar, empatiya va madaniy anglash

## МЕТОДИКА УЛУЧШЕНИЯ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ

**Турсунов Хусанбой Бургутович**

*доцент Наманганского государственного  
института иностранных языков, имени Исаак  
Хан Ибрат, доктор педагогических наук (PhD)  
tel :+998937040874  
e.mail: [tursunovhb@rambler.ru](mailto:tursunovhb@rambler.ru)*

**Аннотация:** В данной статье описана методика совершенствования навыка семантического чтения у будущих учителей иностранного языка средствами художественных текстов. Даже при обучении иностранным языкам семантическое чтение имеет важное педагогическое и теоретическое значение для развития у учащегося знаний, грамотности и навыков работы с текстом.

**Ключевые слова:** семантическое чтение, межкультурная коммуникация, когнитивно-методологический подход, лингводидактика, развитие ассоциативного мышления, аналитико-критического мышления, коммуникативный метод, метод аналитического (семантического) чтения, метод визуализации;



## METHOD FOR IMPROVING READING SKILLS THROUGH LITERARY TEXTS

**Tursunov Khusanboy Burgutovich**

*Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Namangan State Institute of foreign Languages*  
tel :+998937040874  
e.mail: [tursunovhb@rambler.ru](mailto:tursunovhb@rambler.ru)

**Annotation:** This article describes the methodology for improving semantic reading skills in future Foreign Language teachers through the means of artistic texts, including adoir theories, feedback. Even in teaching foreign languages, semantic reading has an important pedagogical and theoretical value for the development of the student's skills in knowledge, literacy and working with text. The ability to read is a fundamental and necessary skill in the study of native and foreign languages, since it provides access to pedagogical and cognitive materials and is the main source of obtaining grammatical and lexical information.

**Keywords:** semantic reading, intercultural communication, cognitive-methodological approach, linguodidactics, development of associative thinking, analytical and critical thinking, communicative method, method of analytical (semantic) reading, visualization method;

### KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish juda muhim ahamiyatga ega. O'qish – bu faqatgina matnni tushunib o'qish emas, balki matn bilan muloqot qilish, uning ma'nolarini chuqur anglash va shaxsiy fikr-mulohazalarni shakllantirish jarayoni. Badiiy matnlar esa o'qish malakalarini rivojlantirishda alohida o'rinni tutadi, chunki ular talabalarga yuksak adabiy til, ruhiy boylik va hayotiy tajribani o'rgatadi. Ushbu ilmiy maqolada badiiy matnlar asosida o'qish kompetensiyalarini takomillashtirishning samarali metodikalariga e'tibor qaratiladi.

O'qish - yozilgan matn bilan tanishish, uni tushunish va o'zlashtirishga qaratilgan nutqiy faoliyatning bir turi bo'lib, shaxslararo kommunikativ faoliyat sohasiga daxldor. O'qish muloqot shakllaridan biridir. O'qish til o'rganish jarayonining asosi hisoblanib, matnda shakllar yordamida ifodalangan ma'lumotlarni o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu, o'z navbatida, inson



faoliyatining har qanday turida tildan erkin va samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'qish kompetensiyasi til o'rganishning asosiy va muhim vazifalardan biri bo'lib, talabalarining matnni tushunish, tahlil qilish, va unga asosan fikrlarni shakllantirish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. O'qish kompetensiyasining rivojlanishi tilni mukammal o'rganishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi.

Professor Q.Yo'ldoshev badiiy asar tahiilining nazariy-metodik masalalari ustida jiddiy izlanishlar olib borib, «Badiiy tahlil asoslari» kilobini yaratdi. Bu asarda tahlil turlari, yo'nalishlari, tamoyillari va tahlilga qo'yiladigan talablar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu qarashlar respublika ta'lim muassasalarida adabiyot o'qitishning yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki beradi. Olim badiiy asar tahlili shaxs va millat ma'naviyatini shakllantirish omili ekaniga alohida e'tibor qaratadi. O'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi talabalarining matnni tushunish, tahlil qilish, baholash va undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu metodika talabalarining o'qish savodxonligi va tanqidiy fikrash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Metodika - bu ma'lum bir maqsadga erishish uchun ishlatiladigan usullar, texnikalar va yondashuvlar to'plamidir. U muayyan vazifani bajarish yoki muammoni hal qilish uchun aniq qadamlar va tartiblarni belgilaydi.

Shu bois, metodikaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

*Maqsadga yo'naltirilganlik:* Metodika aniq bir maqsadga erishish uchun ishlab chiqiladi.

*Tizimlilik:* Metodika aniq qadamlar va tartiblarga asoslanadi.

*Amaliylik:* Metodika amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan usullarni o'z ichiga oladi.

*Moslashuvchanlik:* Metodika turli sharoitlarga moslashishi mumkin.

*Samaradorlik:* Metodika maqsadga erishishda samarali natijalar berishi kerak.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Che tillar o'qitish metodikasining takomillashtirishning bir qancha muhim turlari mavjud.



*O'qitish metodikasi:* O'quv jarayonini tashkil etish va talabalarga bilim berish usullari.

*Ilmiy tadqiqot metodikasi:* Ilmiy tadqiqotlar o'tkazish usullari.

*Boshqaruv metodikasi:* Tashkilotlarni boshqarish usullari.

*Dasturlash metodikasi:* Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish usullari.

O'z navbatida savol tug'ilishi tabiiydir. Metodika bizga nima uchun kerak?

*Birinchidan, samaradorlikni oshiradi:* Metodika maqsadga erishishda samaraliroq natijalarga erishishga yordam beradi.

*Ikkinchidan, vaqt ni tejaydi:* Metodika aniq qadamlar va tartiblarni belgilab beradi, bu esa vaqt ni tejashga yordam beradi.

*Uchinchidan, sifatni yaxshilaydi:* Metodika ish sifatini yaxshilashga yordam beradi.

*To'rtinchidan, standartlashtiradi:* Metodika ish jarayonini standartlashtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, metodika - bu muayyan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan usullar va texnikalar to'plamidir. U turli sohalarda samaradorlikni oshirish, vaqt ni tejash va sifatni yaxshilash uchun ishlatiladi. Badiiy matnlar orqali o'qish kompetensiyalarini takomillashtirishda fransuz tili va adabiyoti o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu esa talabalarga nafaqat til, balki madaniyatni o'rganishga ham yordam beradi. Natijada, bu jarayon quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

a) *Faol o'qish:* Talabalarni matn bilan faol munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ya'ni matnni savollar berish, muhokama qilish va tahlil qilish orqali o'qitadi. Talabalarni matnning asosiy g'oyalarini aniqlashga, faktlar va fikrlarni ajratishga, shuningdek, matnning tuzilishini tushunishga o'rgatadi.

b) *Tanqidiy fikrlash:* Talabalarni matnni tanqidiy baholashga, muallifning nuqtai nazarini, maqsadini va auditoriyasini tushunishga, matndagi dalillarni baholashga, xulosalar chiqarishga va o'z fikrlarini ifoda etishga o'rgatadi.

c) *O'qish strategiyalari:* Talabalarga turli xil o'qish strategiyalarini, masalan, tez o'qish, diqqat bilan o'qish, nusxalash va matnni tezda ko'zdan kechirishni, talabalarga o'zlarining o'qish maqsadlariga va matnning murakkabligiga qarab to'g'ri strategiyani tanlashga o'rgatadi.



d) *Lug'at boyligini oshirish:* Talabalarga yangi so'zlarni o'rghanishga va ularning ma'nolarini tushunishga yordam beradi va talabalarga so'zlarining kontekstda qanday ishlatilishini tushunishga va ularni o'z nutqida ishlatishga o'rgatadi.

Badiiy matnlar orqali o'qish kompetensiyalarini takomillashtirishda metodik usullarmi ahamiyati juda muhimdir:

- **"KLASTER" metodi:** Talabalarga matnning asosiy g'oyalarini aniqlashga va ularning o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.
- **"BBB" jadvali:** Talabalarga matnni o'qishdan oldin, o'qish paytida va o'qishdan keyin o'z bilimlarini tashkil qilishga yordam beradi.
- **"Insert" metodi:** Talabalarga matnni o'qish paytida o'z fikrlarini belgilashga va tahlil qilishga yordam beradi.
- **"Munozara" metodi:** Talabalarga matn bo'yicha o'z fikrlarini ifoda etishga, boshqa talabalarning fikrlarini tinglashga va muhokama qilishga yordam beradi.

O'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi talabalarga nafaqat maktabda, balki hayotda ham muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi. O'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi talabalarning o'qish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondoshuvlar va amaliy uslublarni o'z ichiga oladi. Bu metodika talabalarga o'qish jarayonida kerakli ko'nikmalarni shakllantirish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, matnni anglash va maqsadli ravishda o'qish samaradorligini oshirishga qaratilgan. O'qish kompetensiyalarini takomillashtirishda quyidagi asosiy metodlar ham qo'llaniladi:

1. O'qishning maqsadiga qarab yondoshuv: O'qish jarayonining maqsadi talabaning matnni anglash va tahlil qilishdan iborat bo'lishi kerak. Shu maqsadda talabalarni quyidagi maqsadlar bilan o'qishga o'rgatish zarur: matnni tushunish va asosiy fikrni ajratib olish, xulosalar chiqarish va matnning muhim qismlarini ajratish, o'qilgan ma'lumotni kundalik hayotga qo'llash;
2. Kognitiv metodlar: Kognitiv yondashuvlar o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun samarali usuldir. Talabalarni tahlil qilish va tushunishga asoslangan kognitiv metodlar yordamida:



- Matnni qismlarga ajratish va har bir bo'limni alohida tahlil qilish, ko'proq savollar berish, matnni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va matn bo'yicha muammolarni hal qilish va yangi g'oyalar ishlab chiqiladi.
- 3. Interaktiv o'qish: Talabalarni faollikka undash uchun interaktiv o'qish metodlaridan foydalanish mumkin:
  - Guruhlarda muhokama qilish va fikr almashish;
  - O'qilgan matn asosida debatlar tashkil etish;
  - Talabalarni fikrlar va mulohazalar bilan o'zaro aloqada bo'lishga rag'batlantirish;
- 4. O'qish texnikalarini o'rgatish: O'qish texnikalarini o'rgatish ham muhimdir. Talabalarni tez va samarali o'qish texnikalari bilan tanishtirish ularning o'qish samaradorligini oshiradi.

### OLINGAN NATIJALAR TAHLILI

Matndan olgan ma'lumotlarini birlashtirib, yangi natijalarga erishadilar. Bu metodikalar o'qish kompetensiyalarini takomillashtirishda samarali natijalarga erishishga yordam beradi, talabalarning fikrlash darajasini oshiradi va matnni anglash qobiliyatini rivojlantiradi.

Taniqli metodist olim Safo Matjonov deydi : «Badiiy asarni o'qish o'zicha hali hech narsani anglatmaydi. Eng muhimi, nimani o'qish va o'qiganni qanday tushunishdir. Demak, kitobxonlik - o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki uni tushunib o'qish, ya'nii maqsadli o'qishdir». «Badiiy asarni o'qiganda sizdagi bu «loqaydlik» faol munosabatga almashinadi. Qalbingiz cheksiz shodliklarga chulg'anadi - ruhlanasiz, g'azablanasiz, iztirob chekasiz. Chunki и qalb dardi tufayli yaratgan, dard esa suhbatdoshni befarq qoldirmaydi.

Badiiy matnlar yordamida tilni chuqurroq o'rganish, tilning estetik va intellektual tomonlarini anglash imkoniyatlari yaratiladi. Fransuz adabiyotning talabalarga tilni chuqurroq o'rganishga yordam berishi, talabalarga nafaqat grammatikani, balki tilning nozikliklarini, uslubini ham tushunish imkoniyatini yaratadi. Badiiy matnlar talabalarga nutqni tinglash va o'zlashtirish, so'z boyligini oshirishda yordam beradi.

Chet til o'qitish metodikasida o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishning bir qancha samarali metodlari qo'llanilib kelmoqda.

- a) *Tahliliy metod*: Fransuz tilidagi badiiy matnlarni tahlil qilish orqali talabalar asarlarning asosiy g'oyasini, tuzilishini, va ma'no qatlamlarini anglashadi. Misol uchun, Victor Hugo yoki Marcel Proust kabi klassik yozuvchilarning asarlaridan foydalanish orqali matnni va uni yaratgan muhitni tushuna oladilar.
- b) *Tanqidiy fikrlash metodlari*: Badiiy matnlar orqali talabalar matnning kontekstini, muallifning maqsadini, adabiy uslubini aniqlashda tanqidiy yondashuvni o'rGANISHADI.
- c) *Interaktiv metodlar*: Talabalarni guruqlar bo'lib ishslashga, matnni birgalikda muhokama qiladilar. Bunday metod talabalarning fikrlarini erkin ifodalashlariga va bir-biridan o'rGANISHLARIGA yordam beradi.
- d) *Kreativ metodlar*: Talabalarga matndan o'ziga xos talqin yaratish, yangi va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.
- e) *Yuqori darajadagi til tushunchalari*: Talabalar badiiy asarlar orqali o'z til boyligini, izohli so'zlarni, adabiy iboralarni kengaytirishadi.
- f) *Empatiya va madaniy anglash*: Fransuz tilidagi badiiy matnlar talabalarni boshqa madaniyatni tushunishga va empatiya tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy asarlar nafaqat tilni, balki muhitni, tarixni va psixologiyani ham o'rgatadi.
- Darslarda badiiy matnlar bilan ishslashda metodik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.
- *Matnni tushunish va tahlil qilish*: Talabalarga asarlarni o'zlashtirish, uning ma'nosini tahlil qilishni o'rgatish. Masalan, "Les Misérables" yoki "Le Petit Prince" kabi asarlarni o'rGANISH.
  - *She'r va dramatik asarlar bilan ishslash*: Fransuz she'rlari va dramalari orqali talabalarning til va nutq madaniyatini oshirish, matnlarning o'xshashliklarini va farqlarini aniqlash.
  - *Fanlararo yondashuvlar*: Badiiy matnlarni boshqa fanlar, masalan, tarix, san'at va psixologiya bilan bog'lash orqali yanada chuqurroq o'rGANISH.
- O'qish kompetensiyalarini takomillashtirishda fransuzcha badiiy matnlarning ahamiyatini ta'kidlash lozim.
- Fransuzcha badiiy matnlar talabalarning til bilish qobiliyatlarini nafaqat grammatika jihatidan, balki madaniy, tarixiy, va estetik jihatdan ham rivojlantiradi.

Bu talabalarga nutqni aniq va mukammal ifodalash, tilni ijodiy ishlatish, va madaniyatni tushunishga yordam beradi. Badiiy matnlarni o'qish va tahlil qilish usullarini yanada takomillashtirish, talabalarga fransuz tilini o'rganish jarayonini yanada samarali qilish imkoniyatlarini yaratish zarur. Badiiy matnlar – bu san'at asari sifatida yozilgan va adabiy uslubda ifodalangan matnlar bo'lib, ular talabalarga quyidagi afzallikkarni taqdim etadi:


- 1) *Til madaniyatini oshirish* : Badiiy matnlar talabalarga yangi so'zlar, iboralar va nutq uslublarini o'rganish imkonini beradi.
- 2) *Emotsional dunyoni boyitish* : Adabiy asarlar orqali talabalar turli hiss tuyg'ularni sezal olish, ularga munosabat bildira olish ko'nikmalarini egallaydilar.
- 3) *Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish* : Badiiy matnlar murakkab mavzular, falsafiy fikrlar va ijtimoiy muammolar haqida o'ylashga undaydi.
- 4) *Ijodiy tasavvurni kengaytirish* : Adabiy asarlar talabalarning xayollarini boyitadi va ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

Shuning uchun ham badiiy matnlar o'qish kompetensiyalarini takomillashtirishda asosiy vosita sifatida ishlatilishi lozim.

### XULOSA

Badiiy matnlar – bu o'qish kompetensiyalarini takomillashtirishning samarali vositalaridan biridir. Ulardan foydalanish orqali talabalarning til madaniyati, fikrlash qobiliyati va ma'naviy dunyosi boyadi. Shuning uchun ham o'qituvchilar badiiy matnlarni dars jarayonida samarali va maqsadga muvofiq ravishda qo'llashlari kerak. Bu esa talabalarning mustaqil o'qish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga katta yordam beradi.

Badiiy matnlar talabalarning til va nutq madaniyatini oshirish, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Badiiy asarlar orqali talabalar o'zlarini tasavvur qilish, hissiyotlarni tushunish, emotsional tafakkurini rivojlantirish imkoniyatiga ega boladilar. Badiiy matnlar talabalarga keng miqyosdagi mavzularni o'zlashtirishga, yangi bilimlarni olishga imkon beradi. Talabalarning tahlil qilish, sintetik fikrlash va muhokama qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Har bir badiiy asar talabaning fikrlash qobiliyatini turli yo'llar bilan rivojlantiradi. Masalan, she'r va hikoyalar orqali talabalar o'z hissiyotlarini ifoda



etishni, adabiy tilni mukammallashtirishni o'rganadilar. Talabalarning o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishda badiiy matnlarning ahamiyati beqiyosdir. Badiiy matnlar talabalarning til madaniyatini oshiradi, empatiya va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Kelajakda talabalarning o'qish kompetensiyalarini takomillashtirishda innovatsion pedagogik metodlarni tatbiq etish va badiiy matnlar orqali bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish usullarini tadqiq qilish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Азимов Э. Г.. Щукин Л. П. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практики обучения языкам). — Москва: «И К А Р» . 2009. - С. 347.
2. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy - nazariy asoslari. — Т.: O'qituvchi . 1996 42 – bet
3. Safo Maljon. Kitob o'qishni bilasizmi? Т.: O 'qituchi. 1993. 26-bet
4. Adams, Hazard, ed Literary Criticism Since Plato. New York: Harcourt Brace Jovanovich College Publication, 1992.
5. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma .-T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2010.
- 6.B. To'xliyev haqidagi ma'lumotlarning 60 yilligining bag'ishlab chop etilgan "Badiiy asarlarni sharhlab o'rganish: tarix. tajriba va texnologiya" nomli maqolalar to'plamidan olindi. — Т.: « Bayoz,» MCHJ . 2 0 1 4 . 435 b.